



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning
20__ - 20__ - o'quv yiliga 8-sinflar uchun
adabiyot fanidan III chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf adabiyot fanidan III chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
III chorak				
1.	Abdurauf Fitrat. She’rlar (“Mirrix yulduziga”, “O‘gut”)	1		
2.	Abdurauf Fitrat. She’rlar (“Yurt qayg‘usi”, “Bevafo gulistonim”)	1		
3.	Badiiy tahlil asoslari. Talmeh	1		
4.	Xurshid Do‘stmuhammad: “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasi	1		
5.	“Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasi matni ustida ishlash	1		
6.	“Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasi tahlili	1		
7.	Nazorat ishi-5	1		
8.	Maqsud Shayxzoda: “Jaloliddin Manguberdi” fojiasi	1		
9.	Maqsud Shayxzoda: “Jaloliddin Manguberdi” fojiasi	1		
10.	Maqsud Shayxzoda: “Jaloliddin Manguberdi” fojiasi	1		
11.	Maqsud Shayxzoda: “Jaloliddin Manguberdi” fojiasi	1		
12.	Maqsud Shayxzoda: “Jaloliddin Manguberdi” fojiasi. Nazariy ma’lumot. Dramatik tur	1		
13.	Usmon Nosir. She’rlar	1		
14.	Usmon Nosir. She’rlar	1		
15.	Usmon Nosir. She’rlar. Lirik tur: sonet	1		
16.	O‘ Genri: “Yigirma yildan so‘ng” hikoyasi	1		
17.	O‘ Genri: “Yigirma yildan so‘ng” hikoyasi. Badiiy tahlil asoslari. Syujet burilishi	1		
18.	Nazorat ishi-6	1		
19.	Adabiy laboratoriya	1		
20.	Adabiy laboratoriyada qilingan ishlar taqdimoti	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Abdurauf Fitrat. She'rlar ("Mirrix yulduziga", "O'gut")

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga munosabat bildirish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Davlat arbobi, shoir, olim, nosir, dramaturg, ma'rifatparvar Abdurauf Abdurahim o'g'li

Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida tugʻilgan. Dastlab maktabda, soʻng Mir Arab madrasasida, keyinchalik esa Turkiyaning Istanbul universitetida tahsil olgan. Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli vakillaridan biri. U oʻz xalqini savodli, maʼrifatli qilish uchun astoydil kurashdi. Asarlarida millatni ozod, hur, erkin yashashga chaqirdi, jadidchilik gʻoyalarini keng targʻib qildi. “Turon”, “Buxoroyi sharif”, “Oina” kabi gazeta va jurnallarni tashkil etishga katta hissa qoʻshdi. Turkistonda til, adabiyot, sanʼat, maʼrifat, madaniyat masalalariga bagʻishlangan “Chigʻatoy gurungi” tashkilotiga asos soldi va rahbarlik qildi. Buxoroda musiqa maktabini ochdi. Abdurauf Fitrat 1938-yil 4-oktyabrda “millatchi”, “xalq dushmani” sifatida otib tashlangan.

XIX asming 60-yillarida

Turkiston oʻlkasida Xiva va Qoʻqon xonligi, Buxoro amirligi mavjud edi. Xonliklar oʻrtasidagi oʻzaro kurashlar oʻlkani rus imperiyasi bosib olishiga zamin yaratdi. Turkiston imperiya mustamlakasiga aylangach, xalqning siyosiy, maʼnaviy, diniy huquqlariga cheklovlar qoʻyildi. Mahalliy maktab va madrasalar oʻrniga rus-tuzem maktablari, gimnaziyalar ish boshladi.



Bundan maqsad millatni ruslashtirish edi. Bu paytdagi siyosiy-ijtimoiy tartibsizliklarga befarq boʻlmagan ziyolilar- jadidlar xalqni zalolatdan, mustamlakachilikdan qutqarish uchun milliy ozodiik harakatini boshladilar. Ular yangi usui maktabiarini ochish, isteʼdodii yoshlami xorijga yuborish, gazeta va jurnaliar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish orqali Turkistonda mustaqil davlat qurishni maqsad qilgan edilar.

*Mahmudxoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon kabi ziyolilar jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalari edi. Ular dastlab oʻzlarini “taraqqiy-parvariar”, keyinchalik *’jadidlar” deb atashgan. Ular siyosat, ijod, ijtimoiy hayotda belgilagan maqsadiga erishdilar, lekin chor Rossiyasining siyosati va yerlik hukumat rahbarlarining tarqoqligi sabab magʻlub boʻldilar va “aksilinqilobchi”, “millatchi” sifatida qatl etildilar.*

MIRRIX YULDUZIGA

Goʻzal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqgʻani!
 Nega bizdan qochib, muncha uzoqlargʻa tushibsan,
 Tuvgʻaningga nechun sira gapurmasdan turibsan?
 Soʻyla, yulduz, holing nadir? Nechuk toping dunyoni?
 Bizning yerda boʻlib turgʻan tubanliklar, xoʻrliklar,
 Soʻyla, yulduz, sening dagʻi quchogʻingda boʻlurmi?
 Bormi senda bizim kabi insonlar,
 Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar?
 Oʻrtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,
 Qardosh etin toʻymay yegan qoplonlar?
 Bormi senda oʻksuz yoʻqsulning qonin -
 Gurunglashib, chogʻir kabi ichkanlar?
 Bormi senda butun dunyo tuzugin
 Oʻz qopchigʻin toʻldirgʻali buzgʻanlar?

tuqgʻani – tugʻishgan
 aka-uka, qarindosh

dagʻi – ham

oʻksuz – oʻksik, koʻngli
 oʻksigan

yoʻqsul – kambagʻal

chogʻir – ichkilik (may,
 sharob)

tuzuk – qonun

Bormi senda bir o'lkani yondirib,
O'z qozonin qaynatg'uchi xoqonlar?
Bormi senda qorin-qursoq yo'lida
Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?

O'GUT

Tog'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda
Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.
Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal,
Hurkma - kirish, qo'rqma - yopish, yo'rilma - qo'zg'al.
Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni
Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et.
Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo'rlikdir bu...
Yiqil, yo'qol, ket!

Muhokama qilamiz

1. Shoir nega ushbu she'rida aynan yigitlarga murojaat qilgan deb o'ylaysiz?
2. Shoir nazdida "bu yurt uchun qutulish" yo'llari nimalarda edi?
3. **"Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal, Hurkma - kirish, qo'rqma - yopish, yo'rilma - qo'zg'al!"** Shoirning ushbu da'vatida qanday mazmun mujassam?
4. She'rda qanday kayfiyat ustun: pand-nasihatmi yoki da'vat? Javobingizni matnga tayanib asoslang.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Fitrat Mirrix yulduzi orqali qanday g'oyalarni ifodalagan?
2. She'rning qaysi misralarida mustamlakachilikning yurt boshiga olib kelgan ayanchli oqibati ifodalangan?
3. She'rda qanday badiiy tasvir vositalari qo'llangan?
4. **"Bizning yerda bo'lib turg'an tubanliklar, xo'rliklar, So'yla, yulduz, sening dag'i quchog'ingda bo'lurmi?"** satrlarida muallif qanday tubanliklar, xo'rliklar haqida gapiryapti?
5. **"Bormi senda butun dunyo tuzugin O'z qopchig'in to'ldirg'ali buzg'anlar?"** misrasida nimaga ishora qilinmoqda?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Fitratning "Mirrix yulduziga" she'rini yod oling.



O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Abdurauf Fitrat. She’rlar (“Yurt qayg’usi”, “Bevafo gulistonim”)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o’quvchilarga asarni o’qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g’oyasini (yoki g’oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o’rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so’zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o’quvchilarda mavzu bo’yicha bilim, malaka va ko’nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o’quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg’ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o’qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o’rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko’nikmalarini boyitish..

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O’zini-o’zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni ehtiyojga aylantira olish; badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam o’qish va o’rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;

o’z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o’zini nazorat qila bilish, og’zaki va yozma matnlar mazmuniga to’g’ri baho bera olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

badiiy adabiyot va san’atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g’oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasvirini anglash, ulardagi go’zallik va ezgulikdan o’rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

Darsning metodi: og’zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o’zi uchun.

Nazorat: o’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo’limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O’tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so’rash: a) Savol – javob o’tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

YURT QAYG‘USI

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?
Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?
Yov suqg‘ali kelgach qilichini yuragingga,
Tush oldiga, ol ko‘ksuni - qalqonmi kerakdir?
Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,
Turon yovini quvg‘ali to‘nmi kerakdir?
Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg‘a,
Yurtda qorovul qo‘yg‘ali arslonmi kerakdir?

Muhokama qilamiz

1. “Yurt qayg‘usi” she’rida qanday kayfiyat ustun? Sizningcha, ushbu kayfiyatni yuzaga chiqaruvchi so‘z va so‘z birikmalari qaysilar?
2. Nima uchun muallif “Yurt qayg‘usi” she’rini onaga murojaat bilan boshlagan? Ona va yurt o‘rtasida qanday bog‘iqlik bor?
3. Ushbu she’r Vatan, yurtni ulug‘lovchi boshqa she’rlardan qay jihati bilan farq qiladi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
4. “Yurt qayg‘usi” she’ridan Fitrat shaxsiga xos qanday xususiyatlarni sezish mumkin?
5. Yurt qayg‘usini tasvirlovchi so‘zlarni toping va izohlang.

GO‘ZALIM, BEVAFO GULISTONIM

Go‘zalim, bevafo gulistonim,
Bog‘ umrimda toza rayhonim,
G‘am-u qayg‘ularim hujumidan
Sen eding mehribon nigahbonim.
Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o‘ldirmading-da, tark etding?
Kel, gulim, kel, ayoqingg‘a yiqilay,
Bir zamon qo‘y: to‘lib-toshib yig‘lay.
Qo‘y, biroz qo‘yki, xoki poyingni
Surmadek yoshli ko‘zuma suray.
Ketma, tur, tingla arzi holimni,
Arz etay holi purmalolimni.

Qani ul damki, sen eding yorim,
Munisim, hamdamim, madadkorim.
Sening og‘ushi iltifotingda
Rohat etmishdi jismi bemorim.
Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o‘ldirmading-da, tark etding?
Kel, ayoqingg‘a qon bo‘lub to‘kulay,
Bir nafas dard-hajrdan qutulay.
Kel, go‘zal dilbarim, kel, sochingni
Birtaray, biro‘pay-da, so‘ngra...
Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o‘ldirmading-da, tark etding?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Qaysi misralarda oshiqning yorga nisbatan eng samimiy tuyg‘ulari aks etgan deb hisoblaysiz?
2. Fitrat “G‘am-u qayg‘ularim hujumidan” deganda qanday “hujum”larni nazarda tutmoqda?
3. “Kel, ayoqingg‘a qon bo‘lub to‘kulay” misrasini qanday tushundingiz? Oshiqning ruhiy holatini tushuntirishga harakat qiling.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Fitratga maktub yozing. Unda ijodkordan o‘rganganlarinigizni bayon qiling, hayotiy tajribangiz, bilim olishga oid qarashlaringiz va bu borada yoshlarning muammolarini aks ettirishga e‘tibor qarating.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

54 listdan iborat adabiyot fanidan 8-sinf III chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar